

**XALQARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MENEJMENTNING AHAMIYATI****Kabilova Zebo Boboqulovna**

*Raqamli iqtisodiyot,
beznis boshqaruvi va ekonometrika
kafedrasida o'qituvchisi
Tel: 99-677-33-78*

Annotatsiya: *Ushbu maqolda turizm haqida tushunchalar hamda xalqaro turizmni rivojlantirishda menejmentning ahamiyati haqida bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *Iqtisod, turizm, xalqaro, kompyuter, bozor, soha, mahsulot, mamlakat, muhit, investitsiya, formula, industriya, oziq-ovqat, mehmonxona, ichimlik.*

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotining shakillanishi jahon bozorlarida turizm sohasidagi keskin o'zgarishlar davriga to'g'ri keldi. Jahonda turizm iqtisodiyotning ahamiyatli tarmoqlaridan biriga aylandi. Turizm industriyasi millionga yaqin ishchi va xizmatchilarni ish joylari bilan ta'minlab, ular kasb mahoratining o'sishiga imkoniyatlar yaratib bermoqda. Shuni aytib o'tish kerak-ki, bu sohada ish bilan ta'minlanish boshqa sohalarga qaraganda ikki barobar tez o'smoqda. Ichki va xalqaro turizm rivojlanishi tartibsiz ravishda sodir bo'lmaydi. Bu boshqarilishi lozim bo'lgan inson faoliyatining maxsus shaklidir. Turizm industriyasida menejmentning rivojlanishiga ijtimoiy-iqtisodiy, texnik va texnologik omillar ta'sir qiladi. Masalan, iqtisodiyot beradigan daromadlarsiz turizmning ommaviyligiga erishib bo'lmaydi, demak boshqarilish vositasi ham mavjud bo'lmaydi. Turizm tizimida turizm tarmog'ida bo'ladigan munosabatlar va hodisalarning to'plami va yaxlitligi tushuniladi. Turizm bu tashqi muhit bilan o'zaro ta'sir qiluvchi turizm tashkilotlari va hududlarini o'z ichiga oluvchi munosabatlar tizimidir. Franchayzing mehmonxona industriyasida xo'jalik yuritish tizimi sifatida keng qo'llaniladi. Uning mohiyati shundan iboratki, bunda kompaniya chetdan mablag' jalb qiladi va u yordamida o'zining mablag'iga rivojlanishdan ko'ra ancha tezroq rivojlanadi. Kompaniya o'zida litsenziyani saqlab qolgan holda avvalgidek ma'lum huquqlardan foydalanadi, masalan, o'zining savdo belgilarini, amaldagi texnologiyani, uslublarni, bandlik tizimini, sinalgan marketing tadqiqotlarini, chegirmalar tizimi va hokazolardan foydalanish huquqiga egadir. Turizmni iqtisodiy boshqarish sohasida boshqaruv ta'sirining mohiyati turistik faoliyatdagi xarajatlarni imkon darajasida kamaytirishdan iborat. Turizm sohasida iste'mol turistlarning talabini qondirish uchun zarur tovarlar va xizmatlarning qiymati bilan aniqlanadi. Shunday qilib, xarajatlar turistning safarga tayyorgarlik, safar chog'ida va safar manzilida bo'lgan paytidagi xarajatlarning umumiy yig'indisi sifatida hisoblanadi. Turistik sayohat uchun xarajatlar miqdorini belgilash uchun biz quyidagilarni aniqlaymiz: -safarlar tezligi. Bu ko'rsatkich kishi ma'lum vaqt davomida o'rtacha necha marta safarga chiqishini ko'rsatadi.



SS

ST= -----, bunda ST - safarlar tezligi;

V SS - safarlar soni;

V - vaqt.

-safarlar jadalligi. Bu ko'rsatkich aholining qaysi qismi yil davomida turistik xizmatdan foydalanganligini ko'rsatadi.

TS

SJ = -----, bunda SJ - safarlar jadalligi;

AS TS - turistlar soni;

AC - aholi soni.

Turistik xarajatlarning barcha bo'limlarini iqtisodiy tahlil qilish turizm samaradorligini aniqlashning eng muhim turlaridan biri hisoblanadi. Turizmni iqtisodiy boshqarish amaliyotida xarajatlarning 7 asosiy bo'limi mavjud:

- kompleks safarlar;
- turistlarni joylashtirish;
- oziq-ovqat va ichimliklar;
- transport;
- dam olish, madaniy va sport faoliyati turlari;
- do'konlarga borish;
- boshqa xarajatlar.

Menejmentning asosiy vazifasi qulay mehnat sharoitlariga yo'l ochib beruvchi va o'z xizmatchilarining professional o'sishi va ularning faoliyatini boshqarish hisobiga xizmatchilarning turmush darajasini ko'tarish imkoniyatini beruvchi samarali turistik tizimini yaratishdan iboratdir. Xalqaro savdo xalqaro ish taqsimlanishining rivojlanishi natijasi hisoblanadi. O'z navbatida bu jarayon yangi hamkorlikning ya'ni turizm rivojlanishining yo'llarini ochib beradi. Davlatning xalqaro turistik almashinuvdagi o'rnini, xalqaro bo'linishni va turizm rivojlanishining umumiy yo'nalishlarini tushuntirib va ko'rsatib beruvchi xalqaro turizm nazariyalariga quyidagilar kiradi:

- mutlaq ustunlik nazariyasi;
- nisbiy ustunlik nazariyasi;
- omillarni solishtirish nazariyasi;
- mahsulotning hayot davri nazariyasi;
- davlatning tegishlilik nazariyasi.

Xalqaro turizm jahon iqtisodiyotining eng muhim, barqaror va dinamik holda rivojlanib borayotgan sohasiga aylanib borayotgani hammamizga ma'lum. BTT ma'lumotlariga ko'ra, 2006-yilda butun dunyo bo'yicha turizmning umumiy o'sish darajasi 4,5% ni tashkil etgan. Xalqaro turistlarning kelishi esa 820 mln. (2006-y.) kishiga yetib, keluvchi turistlardan olinadigan umumiy darom adlar miqdori 650 mlrd. dollardan ortdi, Xalqaro turistik xizmatlar ko'rsatish va servis sohasi tarkibi ham tubdan o'zgardi. Jahon turizm bozori borgan sari xilma-xillashib, aholining ijtimoiy sohasida turistik mahsulotlarga bo'lgan talabi va ehtiyoji ortib bormoqda. Turizmning



ommaviy uyushgan holdagi shakli kengayib turistlarga xizmat ko'rsatish sifati borgan sari rivojlana bordi.

Mamlakatda turizmni milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish, xalqaro turizmni rivojlantirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta'minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Turizm sohasida davlat siyosati turizm sohasi yetakchilik qilish, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yechish, ish o'rinlarini ko'paytirish, hududlar diversifikatsiyasi va rivojlanishini ta'minlash, aholining daromadlari, yashash darajasi va sifatini oshirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va imidjini yaxshilashga qaratilgan. Turizm bo'yicha raqobatbardosh mamlakatlar reytingida dunyodagi madaniy zaxiralar, arzon infratuzilma, sayyohlik mahsulotlari narxi, xavfsizlik darajasi, xalqaro shaffoflik jihatidan eng jozibador 140 ta sayyohlik maskani qayd etilgan. Ushbu ro'yxatda Qozog'iston 85-o'rin, Qirg'iziston 116-o'rin, Tojikiston 119-o'rinni egallagan, O'zbekiston esa Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida eng oxirgi o'rinda turibdi va bu reytingga kiritilmagan. Avvalo O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirish, xalqaro turizmni rivojlantirishda menejmentning o'rnini oshirish lozim. O'zbekiston katta tarixiy-madaniy merosga - 7300 dan ortiq qadimiy-me'moriy va arxeologik obidalarga ega. Ularning ko'pchiligi Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qo'qon va Toshkent shaharlarida joylashgan. Yurtimizdagi 200 dan ziyod tarixiy yodgorlik va obidalar YuNeSKOning madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017-yilning 22 dekabr kuni Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi a'zolariga Murojaatnomasida O'zbekistonning Turkiya, Xitoy va Junubiy Koreyadagi elchilari bilan video muloqotda bo'lib, O'zbekistonning xorijiy mamlakatlardagi elchilari faoliyatini qayta ko'rib chiqayotganini, har bir elchihar hafta O'zbekistonga eng kamida 10 ta sayyoh jo'natishi, investitsiya kiritish bilan shug'ullanishi kerakligini alohida ta'kidlab o'tdi. Shu bilan birgalikda investitsiya to'g'risida O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunida "Investitsiya - qonun xujjatlarida ta'qiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati va boshqa faoliyat ob'ektlariga kiritilgan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar, shuningdek, intellektual mulkka bo'lgan huquqlar hamda reinvestitsiyalar" deb ko'rsatib o'tilgan. Mamlakatimizda kirib kelayotgan turistlar ularga ko'rsatilayotgan xizmatlarga bevosita moddiy hissasini qo'shadi. Boshqaruv qarori - keng ma'noda jamiyatdagi moddiy va ma'naviy ehtiyojlarning real qondirilish imkoniyatlari bilan bir nuqtada kesishuvi xalq xo'jaligidagi bir nuqtada kesishuvi. Xalq xo'jaligidagi bu muammoning yechimi mavjud qonunlar, farmonlarning bizga bog'liq bo'lmagan qonuniyatlarning bizga bog'liq bo'lmagan qonuniyatlarning bir-biriga muvofiq kelishishidir. Boshqaruv qarori korxonada turgan maqsadlar va missiyasini amalga oshirish demakdir. Iqtisodiyotni boshqarishdagi yechimlarning mohiyati kulgina ob'ektiv omillarga bog'liq.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I .A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. Toshkent,
2. Александрова Ю.А. «Международный туризм» Учебник. М:«Аспект пресс», 2004.
3. Александрова Ю.А. «Международный туризм» Учебное пособие для вузов. М:«Аспект пресс», 2001.
4. Балабанов. И.Т. «Экономика туризма» М., «Финансы и статистика», 2000.
5. Большой глоссарий терминов международного туризма. Под ред. М.Б. Биржакова, В.И. Никифорова. Второе издание. В двух томах. М.: СПб. Изд. «Нивеский фонд», 2003.
6. Биржаков М.Б. Введение в туризм. СПб.: Издательский Торговый Дом «Герда», 2004.
7. Кабушкин Н.И. Менеджмент туризма.-М.: Новое знание, 2005.- 644 с.
8. Бутуров И.Н. Маркетинг и менеджмент иностранного туризма.- М.: Финансы и статистика, 2003. – 107 с.
9. Hospitality, Tourism and heisure Management: Issues in Streegy and Culture. London, 2003. -265 p.
10. Lundberg D., Krishnamurthy M. – Tourism Economics. New York: John Wiley Sons Ine, 2003.